ACADEMIC SPECTRUM

2026-yil 2-son

Ilmiy-metodik jurnal
Научно методический журнал
Scientific and Methodical Journal

ISSN
3093-9089

Buxoro - 2026

ACADEMIC SPECTRUM

Ilmiy-metodik jurnal
Научно методический журнал
Scientific and Methodical Journal

№ 2-Son 2026-yil

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy komunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrdagi №1273056 sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan

BOSH MUHARRIR:
Axmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
TAHRIRIYAT KENGASHI A’ZOLARI

Кулешов Валерий Владимирович - pedagogika fanlari doktori, professor Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi (Ukraina).

Andriyenko Yelena Vasilyevna - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta’limi instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Romm Tatyana Aleksandrovna - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Olimov Shirinboy Sharofovich — pedagogika fanlari doktori, professor (Buxoro davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasi mudiri).

Zaripov Lochin Rustamovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazi, O’quv-uslubiy faoliyatni takomillashtirish boshqarma boshlig‘i).

Safarov Dilmurod Xalimovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari)

Nazarov Akmal Mardonovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti Yoshlar masalalari va ma`naviy-ma`rifiy ishlar bo`yicha birinchi prorektor).

Rustamov Shavkat Shuhrat o’g‘li - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasi mudiri).

Ganjiyev Feruz Furqatovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasi professori).

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna - psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasi dotsenti).

Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich - pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasi dotsenti).

Tilavov Muxtor Hasan o‘g‘li - psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasi dotsenti).

Mas’ul kotib:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li – Buxoro davlat universiteti Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

EDITOR-IN-CHIEF:

Akhmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor.

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Valeriy Vladimirovich Kuleshov — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Academician of the Russian Academy of Sciences (Ukraine).

Elena Vasilyevna Andrienko — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of Physics, Mathematics, Information and Technological Education, Novosibirsk, Russia).

Tatyana Aleksandrovna Romm — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of History, Humanities and Social Education, Novosibirsk, Russia).

Shirinboy Sharofovich Olimov — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Bukhara State University, Head of the “Pedagogy” Department).

Lochin Rustamovich Zaripov — Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor (Research Center for the Development of Higher Education under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan, Head of the Department for Improvement of Educational and Methodological Activities).

Dilmurod Xalimovich Safarov — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor (Navoi Regional Center for Pedagogical Excellence, Deputy Director for Academic Affairs).

Akmal Mardonovich Nazarov — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor (Bukhara State University, First Vice-Rector for Youth Affairs and Spiritual-Educational Work).

Shavkat Shuhrat o‘g‘li Rustamov — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor (Bukhara State University, Head of the “Psychology” Department).

Feruz Furqatovich Ganjiyev — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor (Bukhara State University, Professor of the “Psychology” Department).

Dilafruz Tuymuratovna Ismatova — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, “Psychology” Department).

Sodiqjon Saidjonovich Mukhlisov — Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, “Information Systems and Digital Technologies” Department).

Muxtor Hasan o‘g‘li Tilavov — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, “Psychology” Department).

EXECUTIVE SECRETARY:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li — Lecturer, Department of Psychology, Bukhara State University.

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:

Ахмадов Назирджон Рахмат угли — доктор философии по психологии (PhD), доцент.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:

Кулешов Валерий Владимирович — доктор педагогических наук, профессор, академик Российской академии наук (Украина).

Андриенко Елена Васильевна — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт физики, математики, информационных и технологических наук, г. Новосибирск, Россия).

Ромм Татьяна Александровна — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт истории, гуманитарных и социальных наук, г. Новосибирск, Россия).

Олимов Ширинбой Шарофович — доктор педагогических наук, профессор (Бухарский государственный университет, заведующий кафедрой «Педагогика»).

Зарипов Лочин Рустамович — доктор педагогических наук (DSc), профессор (Научно-исследовательский центр развития высшего образования при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан, начальник управления совершенствования учебно-методической деятельности).

Сафаров Дилмурод Халимович — доктор психологических наук (DSc), профессор (Навоийский областной центр педагогического мастерства, заместитель директора по академической деятельности).

Назаров Акмал Мардонович — доктор психологических наук (DSc), профессор (Бухарский государственный университет, первый проректор по делам молодежи и духовно-просветительской работе).

Рустамов Шавкат Шухрат угли — доктор психологических наук (DSc), доцент (Бухарский государственный университет, заведующий кафедрой «Психология»).

Ганжиев Феруз Фуркатович — доктор психологических наук (DSc), доцент (Бухарский государственный университет, профессор кафедры «Психология»).

Исматова Дилафруз Туймуратовна — доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Психология»).

Мухлисов Содикжон Саиджонович — доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Информационные системы и цифровые технологии»).

Тилавов Мухтор Хасан угли — доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Психология»).

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:

Дехконбоев Шохжахон Ойбек угли — преподаватель кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

Urazaliyeva Dilraboxon Nishonboyevna
Osiyo Xalqaro Universiteti, 1-kurs magistranti

O'SMIRLARDA SUISID XAVFINING BIO-PSIXO-FIZIOLOGIK MEXANIZMLARI: MASOFAVIY PSIXOGEN TA'SIR SHAROITIDA TIBBIY-PSIXOLOGIK YONDASHUV

Annotatsiya. *Mazkur maqolada masofaviy psixogen ta'sirlar sharoitida o'smirlarda suitsidal xavfning bio-psixo-fiziologik mexanizmlari tahlil qilinadi. Suitsidal xulq biologik o'lim istagi emas, balki subyektiv "Men" regulyatsiyasi buzilishi fonida irodaviy energiyaning autodestruktiv vektorga qayta yo'nalishi sifatida talqin etiladi. Tadqiqot natijalari neyro-vegetativ rezonans va prefrontal–limbik disbalansning muhim rolini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *O'smirlar; suitsidal xavf; masofaviy psixogen ta'sir; irodaviy transformatsiya; biopsixofiziologik disbalans; neyro-vegetativ rezonans; prefrontal–limbik disbalans; mediko-psixologik yondashuv.*

Аннотация. *В статье анализируются био - психо - физиологические механизмы суицидального риска у подростков в условиях дистанционного психогенного воздействия. Суицидальное поведение трактуется не как стремление к биологической смерти, а как функциональная трансформация волевой энергии в автодеструктивное русло на фоне нарушения регуляции субъективного «Я». Показана роль нейровегетативного резонанса и префронтально-лимбического дисбаланса.*

Ключевые слова: *подростки; суицидальный риск; дистанционное психогенное воздействие; волевая трансформация; биопсихофизиологический дисбаланс; нейровегетативный резонанс; префронтально-лимбический дисбаланс; медико-психологический подход.*

Abstract. *This article analyzes the bio-psycho-physiological mechanisms of suicide risk in adolescents under conditions of remote psychogenic influence. Suicidal behavior is interpreted not as a desire for biological death but as a functional transformation of volitional energy into an autodestructive vector due to disrupted regulation of the subjective Self. The role of neurovegetative resonance and prefrontal–limbic imbalance is demonstrated.*

Key words*: adolescents; suicide risk; remote psychogenic influence; volitional transformation; biopsychophysiological imbalance; neurovegetative resonance; prefrontal–limbic imbalance; medical-psychological approach*

Kirish. So'nggi o'n yilliklarda o'smirlar suitsidal xulq-atvori biologik, psixologik va ijtimoiy determinantlar kesishmasida keng qamrovli tarzda o'rganilgan. Neyrobiologik tadqiqotlar HPA o'qi disfunksiyasi, serotonerjik regulyatsiya buzilishi hamda prefrontal korteksning kognitiv nazorat funksiyasi susayishini suitsidal impulslar bilan bog'laydi. Psixologik yo'nalishda depressiv simptomatika, kognitiv distorsiyalar, impulsivlik va affektiv beqarorlik asosiy xavf omillari sifatida aniqlangan [1, 8, 9, 12, 14]

Biroq mavjud adabiyotlarda ushbu komponentlar ko'pincha fragmentar tarzda, alohida qatlamlar sifatida talqin qilinadi. Bioenergetik (A. Lowen) va psixoenergetik (V.V. Boyko) konsepsiyalar insondagi energetik disbalansning psixik jarayonlarga ta'sirini asoslagan bo'lsa-da, ular neyrofiziologik regulyatsiya tizimlari bilan to'liq integratsiya qilinmagan. Xuddi shuningdek, neyrobiologik va psixosomatik modellar tashqi psixosuggestiv axborot signallarining vegetativ-stress tizimlarga rezonansli tarzda ulanib ketishini operatsion mexanizm sifatida izohlab bera olmaydi. [2, 3]

Mazkur maqola мuallif pozitsiyasiga ko'ra, suitsid biologik o'lim istagi emas, balki subyektiv "Men"dan qutulishga qaratilgan anglanmagan holat bo'lib, u ichki regulyatsion zaifliklar fonida erkin masofaviy psixosuggestiv ta'sirlar ta'sirida faollashuvchi bio-psixo-fiziologik disbalans orqali irodaviy energiyaning konstruktiv yo'nalishdan autodestruktiv vektorga og'ishi bilan namoyon bo'ladi...

Muallifning birinchi maqolasida o‘smirlar suitsidal xavfi biopsixoenergetik, psixologik va axborot ta’sirlari kesimida tahlil qilinib, tanqidiy fikrlash va axborot savodxonligi xavfni kamaytiruvchi omil sifatida ko‘rsatilgan edi. Ushbu ikkinchi maqola esa mazkur yondashuvni chuqurlashtirib, masofaviy psixogen ta’sir fenomenini neyroendokrin regulyatsiya (HPA o‘qi), vegetativ labillik va prefrontal–limbik disbalans bilan bog‘langan biopsixofiziologik mexanizm sifatida empirik va klinik-psixologik asosda ochib berishni maqsad qiladi.[15]

Ilmiy yangilik va mualliflik hissasi: Ushbu tadqiqot o‘smirlarda suitsidal xavf genezisini tushuntirishda mavjud klinik, psixologik va bioenergetik modellardan konseptual jihatdan farqlanuvchi yangi integrativ yondashuvni taklif etadi. Mazkur ishning ilmiy yangiligi quyidagi asosiy pozitsiyalar bilan belgilanadi:

Ilk bor masofaviy psixogen ta’sir (MPT) fenomeni axborot oqimi yoki ijtimoiy omil sifatida emas, balki gipotalamo–gipofizar–adrenal (HPA) o‘qi, vegetativ labillik hamda prefrontal–limbik disbalans orqali ishlovchi biopsixofiziologik modulyator omil sifatida operatsionallashtirildi.

Suitsidal xulq-atvor biologik o‘lim istagi emas, balki subyektiv “Men”dan qutulishga qaratilgan, anglanmagan regulyativ akt bo‘lib, u irodaviy energiyaning konstruktiv oqimdan autodestruktiv vektorga funksional og‘ishi natijasida yuzaga kelishi haqidagi mualliflik konsepsiyasi birinchi marta ilmiy model darajasida asoslandi.

Ilk bor irodaviy regulyatsiya “zaiflik” sifatida emas, balki neyrovegetativ rezonans fonida yo‘nalishini o‘zgartiruvchi funksional resurs sifatida talqin qilindi va uning prefrontal korteks nazoratining susayishi bilan bog‘liqligi diagnostik indikatorlar orqali empirik ravishda asoslandi.

O‘smirlik davriga xos vegetativ labillik, kognitiv filtratsiya yemirilishi va HPA o‘qi reaktivligi suitsidal impulslar uchun markaziy risk-mexanizm sifatida yagona biopsixofiziologik modelga birlashtirildi.

Muallif tomonidan ilk bor masofaviy psixogen ta’sir → vegetativ disbalans → kognitiv filtratsiya yemirilishi → irodaning destruktiv og‘ishi → suitsidal xavf dinamik zanjiri konseptual va metodologik jihatdan operatsionallashtirildi.

Shu tariqa, mazkur tadqiqot mavjud nazariyalarni inkor etmasdan, ularni yagona biopsixofiziologik tizimga integratsiyalovchi mualliflik modelini taklif etadi va suitsid profilaktikasida yangi mediko-psixologik yo‘nalishni shakllantiradi.

Nazariy asos: iroda va energiya bog‘liqligi. Mazkur ishda suitsidal xavfning biopsixofiziologik mexanizmlari integrativ model asosida talqin qilinadi. Ushbu modelda irodaviy energiya organizmning neyrofiziologik resurslari, vegetativ muvozanati va psixoemotsional barqarorligi bilan uzviy bog‘liq regulyativ mexanizm sifatida qaraladi. Iroda shunchaki psixologik kategoriya emas, balki markaziy nerv tizimi faoliyatining energetik ta’minoti bilan bog‘liq funksional tizim sifatida tushuniladi. [2, 3]

Normal sharoitda bosh miyaning prefrontal korteksi (kognitiv nazorat markazi) limbik tizimdan kelayotgan affektiv impulslarni jilovlash uchun yetarli bioenergetik potensialga ega bo‘ladi. Bu holatda irodaviy regulyatsiya konstruktiv yo‘nalishda ishlaydi va shaxsning hayotni asrashga qaratilgan qarorlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Prefrontal–limbik muvozanat shaxsning stressga chidamliligi, affektiv barqarorligi va kognitiv filtratsiya qobiliyatini ta’minlaydi.[13, 14]

"Iroda energiyaga bog‘liq regulyativ mexanizm bo‘lib, u bevosita bosh miyaning prefrontal korteksi (mantiqiy nazorat markazi) va limbik tizim (emotsional reaksiyalar markazi) o‘rtasidagi energetik muvozanatga tayanadi. Normal holatda prefrontal korteks limbik tizimdan kelayotgan impulslarni jilovlash uchun yetarli bioenergetik potensialga ega bo‘ladi.“Mazkur neyrofiziologik va energetik disbalans mexanizmlari muallif tomonidan ishlab chiqilgan integrativ biopsixofiziologik model doirasida 1-rasmda tizimlashtirilgan.1-rasm. o‘smirlarda irodaviy energiyaning normal va patologik oqimlari, shuningdek, masofaviy psixogen ta’sirlar bilan bog‘liq holda yuzaga keluvchi neyro-vegetativ rezonans mexanizmi sxematik tarzda aks ettirilgan. Mazkur modelda prefrontal nazoratning pasayishi limbik tizim faolligining ustunlashuvi bilan birga kechib, subyektiv “Men” regulyatsiyasining buzilishiga olib kelishi ko‘rsatiladi

1-rasm. O'smirlarda irodaviy energiyaning destruktiv yo'nalishga og'ishi modeli



Biroq masofaviy psixogen ta’sirlar bilan bog‘liq surunkali stress va neyro-vegetativ rezonans sharoitida ushbu muvozanat izdan chiqadi. Energiya resurslarining asosiy qismi limbik tizimdagi “hayajon o‘choqlari”ni qo‘llab-quvvatlashga sarflanadi.

2-rasm. Suitsidal xulq-atvorning bio-psixo-energetik faollashuv mexanizmi



Ushbu jarayon bio-psixo-fiziologik kaskad mexanizmi orqali chuqurlashadi. Masofaviy psixo-suggestiv ta’sirlar fonida stress tizimi faollashib neyroendokrin regulyatsiya tizimi, jumladan gipotalamo–gipofizar–adrenal o‘q (HPA o‘qi, kortizol sekretsiyasi va vegetativ asab tizimi tonusining oshishi), psixoimmun funksiyasi susayadi. Natijada bioimmun disbalans shakllanib, emotsional barqarorlik pasayadi, subyektiv “Men” regulyatsiyasi izdan chiqadi va irodaviy nazorat destruktiv impulslar foydasiga og‘adi. 2-rasmga qarang [11, 13, 14, 15]

2-rasm. Suitsidal xulq-atvorning bio-psixo-energetik faollashuv mexanizmi

2-rasmda masofaviy psixo-suggestiv ta’sirlar ta’sirida shakllanuvchi neyro-vegetativ rezonansning bio-psixo-energetik oqibatlari sxematik tarzda aks ettirilgan. Modelga ko‘ra, surunkali stress fonida limbik tizimda hayajon o‘choqlari ustunlik qilishi prefrontal korteksning regulyativ resurslarini kamaytiradi.

Bu esa prefrontal korteksning funksional exhaustion holatiga olib keladi. Natijada irodaviy kuch yo‘qolmaydi, balki uning regulyativ vektori konstruktiv yo‘nalishdan autodestruktiv yo‘nalishga og‘adi.

3-rasm. Irodaviy potensialning bioenergetik susayish fonida konstruktivdan destruktiv yo‘nalishga funksional og‘ish mexanizmi. 3-rasmga qarang



3-rasmda Irodaviy potensialning bioenergetik susayish fonida konstruktivdan destruktiv yo‘nalishga funksional og‘ish mexanizmi

Ushbu modelda irodaviy potensialning konstruktiv (hayotni asrash) yo‘nalishdan destruktiv yo‘nalishga og‘ishi bioenergetik va neyro-vegetativ mexanizm orqali tushuntiriladi. Masofaviy psixo-suggestiv ta’sirlar fonida yuzaga keluvchi neyro-vegetativ rezonans umumiy energetik resurslarning prefrontal korteks nazoratidan limbik tizim dominantasiga o‘tishiga olib keladi. Natijada irodaviy energiya subyektiv “Men”ni himoyalashdan ko‘ra, unga qarshi yo‘naltirilgan destruktiv impulslarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Masofaviy psixo-suggestiv ta’sirlar fonida shakllanuvchi neyro-vegetativ rezonans sharoitida energetik resurslarning prefrontal nazoratdan limbik tizim dominantasiga siljishi yuz beradi. Natijada prefrontal regulyatsiya susayib, irodaviy energiya subyektiv “Men”ni himoyalashdan ko‘ra, unga qarshi yo‘naltirilgan autodestruktiv impulslarni qo‘llab-quvvatlay boshlaydi. Ushbu jarayon irodaning yo‘qolishi emas, balki uning regulyativ vektorining funksional o‘zgarishi sifatida talqin qilinadi.

Masofaviy psixogen ta’sirlar ushbu mexanizmda modulyator omil bo‘lib, tashqi psixosuggestiv signallar orqali affektiv reaktivlik, vegetativ regulyatsiya va kognitiv filtratsiya tizimlarini bilvosita buzadi. Shu sharoitda ichki nomutanosiblik subyektiv “Men” bilan noto‘g‘ri identifikatsiyalanib, chidab bo‘lmas holatdan qutulish ehtiyoji biologik o‘lim bilan adashtiriladi. Natijada suitsidal akt irodasizlik emas, balki noto‘g‘ri yo‘naltirilgan irodaviy faollik mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur modelda suitsidal xavf quyidagi dinamik zanjir asosida shakllanadi: Masofaviy psixogen ta’sir → neyro-vegetativ rezonans → vegetativ labillik → prefrontal korteks funksional zaiflashuvi → limbik dominanta → irodaviy regulyatsiyaning autodestruktiv vektorga og‘ishi → subyektiv “Men” identifikatsiyasining buzilishi → suitsidal impulslarning faollashuvi.

Adabiyotlar tahlili. O‘smirlar suitsidal xulq-atvori so‘nggi o‘n yilliklarda klinik, psixologik, neyrobiologik, psixosomatik va energetik yondashuvlar doirasida o‘rganilgan. Biroq ushbu yo‘nalishlarning aksariyati suitsidogenez mexanizmlarini fragmentar tarzda talqin qilib, ularni yagona bio-psixo-fiziologik regulyatsiya tizimi sifatida integratsiyalash masalasini yetarli darajada yoritmagan.

1. Xorijiy tadqiqotlar: Thomas Joiner (2005). Manba va mazmun: “Why People Die by Suicide” asarida Joiner shaxslararo-suitsid nazariyasini ishlab chiqqan. Unga ko‘ra, suitsidal xulq-atvor uch

omil - perceived burdensomeness, thwarted belongingness va acquired capability - kombinatsiyasi natijasida shakllanadi.TAHLIL: Joiner modeli suitsidal impulslarning ijtimoiy-psixologik determinantlarini aniqlaydi, biroq ushbu jarayonlarning vegetativ-stress regulyatsiya tizimlari va neyrofiziologik disbalans bilan qanday ulanib ketishini operatsion mexanizm sifatida ko‘rsatmaydi.

Muallif nimani qo‘shadi: Ushbu ish Joiner nazariyasini masofaviy psixogen ta’sir omili bilan kengaytirib, ijtimoiy-psixosuggestiv signallarning HPA o‘qi, vegetativ labillik va prefrontal–limbik disbalans orqali suitsidal impulslarni modulyatsiya qilishi mexanizmini taklif etadi.

A.Lowen (1975). Manba va mazmun: “Bioenergetics” asarida mushak zo‘riqishlari va energetik bloklarning psixik holat bilan uzviy bog‘liqligi asoslangan. TAHLIL: Lowen energetik disbalansning psixik jarayonlarga ta’sirini nazariy jihatdan ochadi, biroq uni neyroendokrin regulyatsiya tizimlari bilan integratsiyalamaydi.

Muallif nimani qo‘shadi: Ushbu tadqiqot Lowen yondashuvini vegetativ nerv tizimi, HPA o‘qi va prefrontal nazorat mexanizmlari bilan birlashtirib, energetik resurslar tanqisligining biopsixofiziologik indikatorlarini aniqlaydi.

V.V. Boyko (1999). Manba va mazmun: Psixoenergetika nazariyasida psixik energiya hissiyot, iroda va idrok jarayonlarini harakatlantiruvchi ichki resurs sifatida talqin qilinadi.TAHLIL: Boyko energiya almashinuvi g‘oyasini ilgari suradi, biroq tashqi psixosuggestiv axborotning vegetativ-stress tizimlarga rezonansli tarzda ulanib ketish mexanizmini aniqlamaydi.

Muallif nimani qo‘shadi: Ushbu ish Boyko konsepsiyasini masofaviy psixogen ta’sir omili bilan boyitib, tashqi axborot signallarining shaxs irodasidan tashqari invaziv tarzda regulyatsiya tizimlariga kirib borishini biopsixofiziologik model orqali asoslaydi.

2. Mahalliy tadqiqotlar: G‘. B. Shoumarov. Manba va mazmun: “Oila psixologiyasi” asarida suitsidning ijtimoiy-psixologik negizi sifatida oilaviy munosabatlar disfunksiyasi va konfliktlarning o‘smir ruhiyatiga destruktiv ta’siri yoritilgan.TAHLIL: Ushbu yondashuv ijtimoiy muhit rolini asoslaydi, biroq oilaviy stressning vegetativ va neyroimmun tizimlarga qanday ko‘chishi mexanizmini ochib bermaydi.
Muallif nimani qo‘shadi: Ushbu ish oilaviy stressni vegetativ labillik va HPA o‘qi giperfaollashuvi orqali suitsidal impulslar bilan bog‘laydi.

Z.S.Elov (2024). Manba va mazmun: Deviant xulq-atvorli o‘smirlarda suitsidaxloq psixologiyasi.

Tahlil: Elov suitsidning deviant tabiatini asoslaydi, biroq ushbu og‘ishlarning energetik resurslar tanqisligi bilan bog‘liqligini ko‘rsatmaydi.

Muallif nimani qo‘shadi: Ushbu ish deviant og‘ishlarni energetik exhaustion va vegetativ disbalans bilan bog‘lab, irodaning destruktiv yo‘nalishga og‘ishini biopsixofiziologik darajada tushuntiradi.

G. Qodirova. Manba va mazmun: Hissiy resurslar pasayishi va psixosomatik buzilishlar o‘rtasidagi bog‘liqlik.TAHLIL: Qodirova resurslar tanqisligini ko‘rsatadi, biroq bu jarayonning energetik maydon darajasidagi dinamikasini ochib bermaydi.

Muallif nimani qo‘shadi: Ushbu ish hissiy resurslar pasayishini vegetativ reaktivlik va tashqi psixosuggestiv stimullar ta’siri bilan bog‘lab, yangi integrativ talqinni taklif qiladi.

N. Otajonova. Manba va mazmun: Energetik-amaliy psixologiya yo‘nalishidagi tadqiqotlar. TAHLIL: Otajonova energetik disbalansning ruhiy barqarorlikka ta’sirini ochadi, biroq uni neyrofiziologik regulyatsiya tizimlari bilan bog‘lamaydi.

Muallif nimani qo‘shadi: Ushbu ish Otajonova konsepsiyasini HPA o‘qi, vegetativ labillik va prefrontal–limbik disbalans bilan integratsiyalab, masofaviy psixogen ta’sir fenomenini muhim modulyator omil sifatida operatsionallashtiradi.

Mualliflik pozitsiyasi va ilmiy yangilik. Mazkur tadqiqot ilk bor quyidagilarni amalga oshiradi:

Masofaviy psixogen ta’sir fenomenini shunchaki axborot oqimi emas, balki vegetativ-stress regulyatsiya tizimlarini modulyatsiyalovchi psixosuggestiv omil sifatida operatsionallashtiradi.

Suitsidal xulq-atvorni irodaviy zaiflik emas, balki bio-psixo-fiziologik disbalans fonida irodaviy energiyaning autodestruktiv vektorga funksional qayta yo‘naltirilishi sifatida ilmiy asoslaydi.

Energetik, psixologik va neyrofiziologik komponentlarni yagona biopsixoenergetik integrativ modelga birlashtiradi. O‘smirlik davriga xos vegetativ labillik va HPA o‘qi reaktivligini suitsidal impulslar uchun muhim risk-mexanizm sifatida belgilaydi.

Ushbu konseptual ramka muallif tomonidan ilk bor ishlab chiqilgan va fan doirasida yangi nazariy-metodologik yondashuv sifatida taklif etiladi.

Muallif konsepsiyasining farqli jihatlari

Yuqorida tahlil qilingan xorijiy va mahalliy tadqiqotlar suitsidogenezning alohida komponentlarini yoritadi: ijtimoiy (Shoumarov), deviant (Elov), psixosomatik (Qodirova), energetik (Lowen, Boyko, Otajonova) va shaxslararo-psixologik (Joiner). Biroq ushbu yondashuvlarning hech biri masofaviy psixogen ta’sir sharoitida bio-psixo-fiziologik regulyatsiya tizimlarining yagona integrativ mexanizm sifatida qanday ishlashini tizimli tarzda izohlamaydi.

Mazkur tadqiqot ushbu ilmiy bo‘shliqni quyidagi yo‘nalishlarda to‘ldiradi:

- Masofaviy psixogen ta’sir fenomeni ilk bor neyroendokrin, vegetativ va kognitiv regulyatsiya tizimlari bilan bevosita bog‘langan biopsixofiziologik mexanizm sifatida talqin qilinadi.
- Irodaning destruktiv og‘ishi suiqasdning markaziy patogen mexanizmi sifatida ajratiladi va u prefrontal–limbik disbalans orqali tushuntiriladi.
- Energetik, psixologik va neyrofiziologik komponentlar yagona konseptual ramkaga birlashtirilib, suitsidal xavfning dinamik algoritmi ishlab chiqiladi
- O‘smirlik davriga xos vegetativ labillik va ekzistensial yuklama tashqi psixogen signallarga sezgirlikni kuchaytiruvchi asosiy rezonans omillari sifatida ko‘rsatiladi.

Shu jihatdan, muallif konsepsiyasi mavjud nazariyalarni davom ettiruvchi emas, balki ularni yagona integrativ tizimga aylantiruvchi va yangi metodologik sifat bosqichiga olib chiquvchi mustaqil ilmiy model sifatida namoyon bo‘ladi.

Muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari o‘smirlik davridagi suitsidal xavf biologik, kognitiv va vegetativ omillarning alohida emas, balki yagona biopsixofiziologik regulyatsiya tizimidagi o‘zaro kuchayuvchi disbalans natijasi ekanini ko‘rsatdi. Olingan empirik ma’lumotlar muallif tomonidan ilgari surilgan biopsixoenergetik va masofaviy psixogen ta’sir integrativ modelini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Respondentlarning yuqori kognitiv resursga ega ekanligi (98,3%) fonida Ichki kechinmalarni verbalizatsiya qilishdagi qiyinchiliklar (39,5%) kognitiv potensial va subyektiv “Men” regulyatsiyasi o‘rtasidagi funksional uzilishni aks ettiradi. Ushbu holat prefrontal korteksning affektiv impulslarni samarali filtratsiya qilish imkoniyati vegetativ-stress disbalansi sharoitida zaiflashishini anglatadi va mualliflik modelida “kognitiv filtratsiya yemirilishi” mexanizmi bilan mos keladi.

Respondentlarning 92,4%ida aniqlangan ekzistensial yuklama tashqi psixogen signallarga nisbatan rezonansli sezgirlikning oshishini ko‘rsatadi. Idrok selektivligi pasaygan sari tashqi suggestiv axborot stimullariga nisbatan tanqidiy filtrlash qobiliyati susayib, masofaviy psixogen ta’sirlarning regulyatsiya tizimlariga ulanib ketishi osonlashadi.

Suitsidal xavf guruhida aniqlangan affektiv beqarorlik va impulsivlik limbik tizim dominantligining kuchayishi bilan izohlanadi. Ushbu holat Zung testi hamda “Inqirozning shaxsiy profili” metodikasining emotsional blok ko‘rsatkichlari orqali tasdiqlanib, prefrontal–limbik disbalans mexanizmi suitsidal impulslarning neyrobiologik asosida markaziy o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Vegetativ labillik va psixosomatik zo‘riqish belgilarining yuqori uchrashi stress-induktsiyalangan vegetativ disbalans mavjudligini ko‘rsatadi. Bu holat gipotalamo–gipofizar–adrenal (HPA) o‘qining surunkali faollashuvi va psixoimmun regulyatsiya susayishi bilan mos kelib [11, 14] Mazkur jarayon muallif tomonidan taklif etilgan “neyro-vegetativ rezonans” modeli doirasida izohlanadi. Muhim jihat shundaki, ushbu tadqiqot suitsidal xavfni irodaviy zaiflik natijasi sifatida emas, balki irodaviy energiyaning funksional transformatsiyasi sifatida talqin qiladi. Olingan natijalar irodaviy quvvatning yo‘qolmasdan, uning regulyativ vektorining konstruktiv yo‘nalishdan

autodestruktiv yo‘nalishga og‘ishini ko‘rsatadi; bu jarayon energetik zaiflashuv fonida limbik impulslar ustunligi bilan bog‘liq.

Masofaviy psixogen ta’sir ushbu tadqiqotda bevosita fizik signal sifatida emas, balki tashqi axborot-emosional stimullarning idrok, vegetativ regulyatsiya va kognitiv filtratsiya mexanizmlariga integratsiyalashuvi orqali operatsionallashtirildi. Ushbu yondashuv mualliflik so‘rovnomasi, “Inqirozning shaxsiy profili” metodikasi va OAV ta’sirini baholovchi bloklar orqali bilvosita aniqlanib, masofaviy psixogen ta’sirni empirik tekshiruvga yaroqli biopsixofiziologik konstrukt sifatida ilmiy muomalaga kiritadi.

Shunday qilib, olingan natijalar masofaviy psixogen ta’sir, neyro-vegetativ rezonans, prefrontal–limbik disbalans va irodaviy transformatsiya mexanizmlaridan iborat yagona dinamik zanjir mavjudligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari o‘smirlar suitsidal xavfini tushuntirishda mavjud klinik va psixologik modellar yetarli emasligini ko‘rsatib, ushbu fenomenning asosida yagona bio-psixo-fiziologik regulyatsiya tizimining disbalansi yotishini ilmiy asoslaydi. Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, suitsidal xulq-atvor biologik o‘lim istagi emas, balki subyektiv “Men” regulyatsiyasining buzilishi, vegetativ-stress tizimi faollashuvi va irodaviy energiyaning konstruktiv yo‘nalishdan autodestruktiv vektorga funksional og‘ishi bilan bog‘liq murakkab patogen jarayondir.

Tadqiqot natijalari kognitiv filtratsiya zaiflashuvi, prefrontal nazorat susayishi va limbik dominantlikning kuchayishi suitsidal impulslar faollashuvida markaziy neyrofiziologik mexanizm ekanini ko‘rsatdi. Stress-induktsiyalangan neyro-vegetativ rezonans sharoitida affektiv impulslar nazoratdan chiqib, subyektiv “Men”ga qarshi yo‘naltirilgan autodestruktiv qarorlar shakllanishi mumkin.

Mualliflik pozitsiyasiga ko‘ra, suitsid biologik o‘lim istagi emas, balki regulyatsion tizimlar disbalansi fonida yuzaga keluvchi anglanmagan va fojeali regulyativ xatodir. Ushbu yondashuv mavjud psixologik va neyrobiologik modellarni inkor etmasdan, ularni biopsixofiziologik komponent bilan integratsiyalaydi. [16]

Mualliflik ilmiy yangiligi va operatsionallashuvi. Ushbu tadqiqot doirasida ilk bor masofaviy psixogen ta’sir fenomeni mustaqil biopsixofiziologik konstrukt sifatida operatsionallashtirildi hamda suitsidal xavf mexanizmlari energetik, kognitiv va neyrofiziologik komponentlarni birlashtirgan yagona integrativ model doirasida izohlandi. Shuningdek, irodaviy regulyatsiyaning autodestruktiv transformatsiyasi empirik indikatorlar asosida tizimli ravishda asoslab berildi va masofaviy psixogen ta’sir suitsidogenezda muhim modulyator omil sifatida ilmiy jihatdan pozitsiyalandi.

Mazkur natijalar mualliflik konsepsiyasini mustaqil ilmiy model sifatida institutsional darajada himoyalash imkonini beradi. [16]

Amaliy-mediko-psixologik implikatsiyalar

Olingan natijalar asosida suitsid profilaktikasida quyidagi strategiyalar taklif etiladi: neyrofiziologik darajada - vagus nervi faolligini oshirish va neyrometabolik muvozanatni tiklash; psixologik darajada - tashqi psixogen ta’sirlarga qarshi kognitiv filtratsiyani kuchaytiruvchi treninglar; neyropsixologik darajada esa irodaviy regulyatsiyani konstruktiv vektorga qayta yo‘naltiruvchi mikro-vazifalar algoritmlarini qo‘llash. [16]

Yakunlovchi umumlashma

Shunday qilib, mazkur tadqiqot suitsidal xulq-atvorni fragmentar simptomlar majmui sifatida emas, balki yagona biopsixofiziologik regulyatsiya tizimining buzilishi sifatida talqin qiluvchi yangi ilmiy paradigmani taklif etadi. Ushbu model o‘smirlar suitsidining erta diagnostikasi, individual xavf profillarini aniqlash va shaxsga yo‘naltirilgan profilaktik intervensiyalarni ishlab chiqish uchun mustahkam nazariy-amaliy platforma bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur biopsixofiziologik model masofaviy psixogen ta’sir fenomenining suitsidal xavf genezidagi rolini kompleks tarzda operatsionallashtirgan mustaqil mualliflik konsepsiyasi hisoblanib, mavjud nazariy yondashuvlarni inkor etmasdan, ularni yangi integrativ mexanizm doirasida rivojlantiradi va empirik ma’lumotlar bilan mustahkamlaydi. [16]

Muallif pozitsiyasiga ko‘ra, suitsid biologik o‘lim istagi emas, balki subyektiv “Men”dan qutulishga qaratilgan anglanmagan holat bo‘lib, u ichki regulyatsion zaifliklar fonida erkin masofaviy

psixosuggestiv ta’sirlar ta’sirida faollashuvchi bio-psixo-fiziologik disbalans orqali irodaviy energiyaning konstruktiv yo‘nalishdan autodestruktiv vektorga og‘ishi bilan namoyon bo‘ladi. [16]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1 Joiner, T. (2005). Why People Die by Suicide: The Interpersonal-Psychological Theory of Suicide. Cambridge: Harvard University Press.

2 Lowen, A. (1975). Bioenergetics: The Revolutionary Therapy That Uses the Language of the Body to Heal the Problems of the Mind. New York: Penguin Books.

3 Boyko, V. V. (1999). Osnovy psikhoenergetiki: Mezhlichnostnoye vozdeystviye i energiya obmena. Sankt-Peterburg: Piter.(rus tilidagi manba)

4 Shoumarov, G‘. B. (2012). Oila psixologiyasi. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti.

5 Elov, Z. S. (2024). Deviant xulq-atvorli o‘smirlarda suitsidal xulq psixologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti.

6 Qodirova, G. (2018). Hissiy resurslar pasayishi va psixosomatik buzilishlar. Toshkent: Fan nashriyoti.

7 Otajonova, N. (2020). Energetik-amaliy psixologiya asoslari. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti.

8 Beck, A. T., Steer, R. A., & Brown, G. K. (1996). Manual for the Beck Depression Inventory-II. San Antonio, TX: Psychological Corporation.

9 Zung, W. W. K. (1965). A self-rating depression scale. Archives of General Psychiatry, 12(1), 63–70.

10 Kerdo, I. (1966). Vegetativ indeks va vegetativ disbalans diagnostikasi. Klinicheskaya meditsina, 44(5), 55–61.

11 Lazarus, R. S., & Folkman, S. (1984). Stress, appraisal, and coping. New York: Springer.

12 World Health Organization. (2021). Suicide prevention: A global imperative. Geneva: WHO Press.

13 Porges, S. W. (2011). The polyvagal theory: Neurophysiological foundations of emotions, attachment, communication, and self-regulation. New York: Norton.

14 McEwen, B. S. (2007). Physiology and neurobiology of stress and adaptation. Annals of the New York Academy of Sciences, 1032, 33–44.

MUNDARIJA:

Qurbonov G'ulomjon G'afurovich Ochilboyeva Maftuna Dilshod qizi	*Matematik ta'limda differensial yondashuv tushunchasi va uning shakllanishining hozirgi holati*	**6**
Xusanova Gulasal Shuhratjon qizi Husanboyeva Xurshidabonu Muhammadamin qizi	*Axborot texnologiyalarining chet tilini o'qitish metodikasidagi o'rni va ahamiyati*	**10**
Nasirdinova Gulshoda Donyorbek qizi Abdumalikova Marjona Doniyorjon qizi	*Kollaborativ o'qitish texnologiyasi "boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" faniga tatbiq etish imkoniyati*	**13**
Alimdjanova Dilbar Negmatovna	*Jamoat salomatligini fanini o'qitishda mualliflik pedagogik texnologiyalari*	**18**
Raximova Nasiba Nuriddinovna	*O'smirlarda agressiya muammosini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari*	**22**
Bozorova Nazokat Mamasoatovna	*Tarixiy podkastlar va videobloglar o'quvchilarning kognitiv faolligini rivojlantirish shakli sifatida*	**26**
To'rayeva Dilovar Naimovna	*Kichik yoshdagi o'quvchilarning badiiy asarni tahlil etishdagi psixologik xususiyatlari*	**30**
Bobomurodova Mahzuna Ortiq qizi	*Gidronimlarda geografik va tarixiy omillarning aks etishi*	**33**
Giyasova Zuxra Raxmatullayevna	*Gaz molekulalarining tezliklar bo'yicha taqsimoti: desmos yordamida raqamli vizualizatsiya va didaktik imkoniyatlar*	**36**
Bekimbetova Gulnaz Nabatovna	*Methodology for using educational materials on natural resources in theoretical classes*	**43**
Narmuradova Rayhon Uktamovna	*Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini psixologik tahlilga o'rgatishning ahamiyati*	**48**
Itolmasova Nafisa Furqatovna	*Kasbiy qobiliyat tushunchasi va uning psixologik asoslari*	**51**
Yunusova Sohiba Abdulmamidovna Raxmataliyeva Marjona Xurshidjon qizi	*Jarayonlarni boshqarishda rejiniring va kaizen uslublari asosida samaradorlikni oshirish*	**54**
Narmuradova Rayhon Uktamovna	*Jinoyat sodir etishda affekt holatining psixologik va huquqiy bahosi*	**57**
Ismatova Kamola Azizjon qizi	*Bola psixik taraqqiyotida oilaning ahamiyati*	**60**
Очилова Мехрубон Суратовна	*Значение курсов повышения квалификации учителей цифровой грамотности и применению образовательных платформ на уроках географии*	**64**
Sirojov Otajon Orifjonovich	*Talabalarning o'quv faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilishning integrativ mexanizmlarini takomillashtirish*	**69**
Islomov Nurtoy Nomoz o'g'li	*Talabalarda atamalar bilan ishlash ko'nikmalarini takomillashtirish*	**76**

Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	*Ingliz tili o'qitishda o'quvchilarning kognitiv kompetensiyani rivojlantirish metodlari tahlili*	**80**
Eshmuminova Oybarchin Botirovna	*Maktabdan tashqari ta'lim strategiyalari: istiqbolli yo'nalishlar, strategik rejalashtirish va amaliy tadqiqotlar*	**84**
Ibodulloyev Nurali Sheraliyevich	*Raqamli texnologiyalardan foydalanishning ta'lim jarayonidagi o'rni*	**88**
Odamova O'g'iljon Kenjayevna	*Ta'lim muassasalarida psixologik xizmatning samaradorligini oshirishda ertak terapiyasining o'rni*	**91**
Shikarov Tolib Tavakalovich	*Raqamli pedagogikada adaptiv ta'lim texnologiyalari: talabalarning individual ehtiyojlarini qondirish va o'quv samaradorligini oshirish*	**95**
Raximov Azizbek Normurodovich	*Jadid munavvarlar faoliyatida vatanparvarlik tarbiyasining pedagogik mohiyati*	**99**
Shomurodova Nozima Baxriddin qizi	*Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda xorijiy tajribalar tahlili*	**104**
Xolmirzayeva Shahnoza Majidovna	*Maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqillik va ijodiy tashabbusni rivojlantirishning pedagogik asoslari*	**108**
Tangirov Farxodjon Mamatyakubovich	*Loyihaga asoslangan faoliyatning o'quvchilar meta-fan kompetensiyalari va texnologik madaniyatini rivojlantirishga ta'siri*	**112**
Rasulov Rustambek Odilovich Xoshimov Mirjalol Murodjon o'g'li	*Xalqaro aloqa: mohiyati, rivojlanishi, va zamonaviy tendensiyalar*	**119**
Baratova Nozima Xidirova Gavhar Rustamovna	*Raqamli texnologiyalar asosida barqaror turizmni rivojlantirish istiqbollari*	**123**
Urazaliyeva Dilraboxon Nishonboyevna	*O'smirlarda suisid xavfining bio-psixo-fiziologik mexanizmlari: masofaviy psixogen ta'sir sharoitida tibbiy-psixologik yondashuv*	**129**
Kurbonov Munis Ro'zmetova Muhabbat	*Ta'lim jarayonida pedagogik yondashuv axborotlashtirishning ahamiyati*	**137**
Farmonova Dildora Sobirovna	*Nogiron bolalarning jamiyatga moslashuvidagi to'siqlar*	**140**
Axmadova Gulbashakar Azizbekovna	*Erta bolalikda emotsional befarqlikning oqibatlari*	**143**
Tojiboyev Ziyodilla A'zamjon o'g'li	*Raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari*	**147**
Umaraliyeva Hilola Fazliddin qizi	*Talabalarning kommunikativ kompotentligi guruhiy o'zaro ta'sir samaradorligining prediktori sifatida*	**149**
Kozieva Ikbol Komilzhonovna	*Onomastics funktions*	**153**
Ismatova Dilafruz To'ymuratovna	*Zamonaviy jamiyatda oilaviy qadriyatlar transformatsiyasi: an'anaviy modeldan individualistik modelga o'tish jarayoni*	**156**
Ziyadilloyeva Malikabonu Abdulloyevna	*Approaches to studying individual soldier performance and group interaction in the armed forces*	**160**

Ashrapov Nodirbek Namoz o'g'li	*O'smirlik davrida kognitiv jarayonlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-muhit omillari va ularning shaxs kamolotidagi ahamiyati*	**164**
Hamroyev Jasur Umedovich	*Oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalarning innovatsion tafakkuri va muammoli vaziyatlarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari*	**169**
Axmadov Nazirjon Rahmat o'g'li	*Social and psychological factors in the development of positive behavior in adolescents*	**173**
Rustamov Shavkat Shuxratovich	*Pedagogical and psychological approaches to developing students' innovative competence*	**177**
Назаров Акмал Мардонович	*Психологические факторы развития креативного мышления и инновационного подхода у студентов*	**180**
Ганджиев Феруз Фуркатович	*Проявления агрессии среди подростков в социальных сетях и их психологические последствия*	**184**
Дехконбоев Шохжахон Ойбекович	*Методы и подходы судебно-психологической экспертизы при оценке эмоционального состояния личности*	**189**
Zoirov Abduqodir Askarovich	*Talabalarda diqqat sifatlari rivojlanishining psixologik determinantlari*	**193**
Xolmo'minova Yasmina Ma'murjon qizi	*Maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashda individual ta'lim dasturlarining samaradorligi*	**197**
Khusanova Gulasal Shuhratjon kizi, Fozilova Shakhzoda Aslam kizi	*Comparison of the effectiveness of online and offline learning*	**200**
Raximova Moxinora Xoshimjanovna Ibrohimova Feruzabonu Ilyosbek qizi	*Rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'limi taraqqiyotining ayrim masalalari*	**203**
Шарипова Умида Шавкат кизи	*Факторы и проблемы исследования гендера в социолингвистике*	**206**
Тагирова Муштарий Махсудовна	*Своеобразные черты литературных и публицистических трудов джадидов*	**209**
Narziyeva Husnora	*Norasmiy savdoning shahar iqtisodidagi o'rni*	**212**
Xomidova Mahliyo Akobir qizi	*Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar, ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari*	**216**
To'raqulova Nargiza Ali qizi	*Yozuvning vujuga kelishi va tilshunoslikdagi ahamiyati*	**219**
Qovlonbekov Abdulaziz Abdullajon o'g'li.	*Para sportchilarni qo'llab quvvatlashning ijtimoiy psixologik determinatlari (o'smir yoshidagi parasportchilar misolida).*	**222**
Diyorbek Abrayev Mamarajab ogli	*Translation of culturally-bound words from english into uzbek: challenges and strategies*	**225**
Sharipova Shukronaxon Baxtiyorjon qizi	*O'zbek xalq og'zaki ijodi va uni maktabgacha yoshdagi bolalar emotsional intellektini rivojlantirishda qo'llashning psixologik asoslari*	**228**

Rahmatova Nasiba Sobirovna	*Gender psixologiyasida jinsiy farqlanish muammolarini tahlil qilishda erkaklar va ayollarning rollari*	***231***
Ro‘ziyev Ulug‘bek Muzzafarovich	*O‘smirlardagi emotsional zo’’riqishlar va ularni kelib chiqish sabablari*	***238***
Mirzayeva Dilshoda Ikromjonova Sayfidinova Aziza Tolibovna	*O‘zbek va ingliz leksikasida nabotot obrazlarining metaforik talqini*	***242***
Qodirova Dilnoza Murtazoyevna	*Talabalarda professional identifikatsiya jarayonining psixologik determinantalari*	***244***
Tajibayev Shohruh Maqsudovich	*The influence of psychological characteristics on guides’ communicative skills and their professional significance*	***251***
Sharopov Suxrob Shodi o’g’li	*O‘smirlarda refleksiv xususiyatlar va tanqidiy fikrlash o‘rtasidagi bog‘liqlik*	***256***



“ACADEMIC SPECTRUM”
ILMIY METODIK JURNALI UCHUN MAQOLALARNI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI

“ACADEMIC SPECTRUM” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!

1. “ACADEMIC SPECTRUM” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o’zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.

2. E’lon qilinadigan maqolalarga bo’lgan asosiy talablar:

- ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
- maqolaning hajmi: adabiyotlar ro’yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 3-8 betgacha;
- maqola nomi, annotatsiya (50-60 ta so’z) va tayanch so’zlar (8-10 ta) ingliz, o’zbek va rus tillarida keltiriladi.

3. Maqola boshida mavzu, muallifning F.I.O. (to’liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo’lsa, ularning har biri haqida to’liq ma’lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko’rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo’llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro’yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e’lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.

4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 12 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o’ng tomon 2 sm.

5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo’lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to’liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.

6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro’yxatda ko’rsatiladi. Matn ichidagi ko’chirmadan so’ng iqtibos olingan asarning ro’yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o’rinda kitob, to’plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to’liq nomi, nashr ko’rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko’rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko’rsatiladi.

7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.

8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo’lsa, barcha savol va e’tirozlar bo’yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.

9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo’lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma’ruzalari chop etilmaydi. E’lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko’chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.

10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o’zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko’rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o’zgartirishlar kiritishga haqlidir.

12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko’rib chiqilmaydi.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy komunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrdagi №1273056 sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Alpomish ko‘chasi, 9-uy
Elektron manzil: https://fanistiqbollari.uz
Telegram raqami: -998 (91) 245-46-66

“ACADEMIC SPECTRUM” ilmiy-metodik jurnal.
Buxoro
2026. № 2-Son.